

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Uy sotib olish uchun subsidiyalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 25 martdagi "Uy-joy sotib olish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 182-sonli qaroriga asosan uy-joy sotib olish uchun subsidiya taqdim etish, uy-joy sharoitini yaxshilashga muxtoj bo'lgan oilalar, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlar, mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan yoshlar va shu toifadagi boshqa O'zbekiston fuqarolariga nisbatan qo'llaniladi.

Subsidiya oluvchi fuqarolar 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lishi kerak. Agar fuqarolar mehnat migranti bo'lganda, uning nomidan oila a'zolari ham ariza berishi mumkin.

Subsidiya olish uchun arizani davlat xizmatlari markazlari yoki my.gov.uz portali orqali elektron tarzda berish mumkin. Subsidiya olish uchun arizalar 2020 yil 1 oktyabriga qadar qabul qilinadi.

Subsidiya berilishi uchun qabul qilingan barcha arizalar mas'ul organlar vakillaridan shakllantirilgan maxsus komissiya tomonidan o'rganib chiqiladi va ariza beruvchilarga mezonlar bo'yicha ball beradi. Subsidiya eng yuqori ball to'plaganlarga tartib bo'yicha beriladi.

Subsidiya olish uchun quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi zarur.

- pasport;
- oila a'zolarining pasporti va nikoh qayd etilganligi guvohnomasi (to'liq oila va voyaga yetgan farzandi(lari) bo'lganda) va farzandlarining tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari (agar voyaga yetmagan bo'lsa) nusxasi;
- nikoh bekor qilinganligi haqidagi guvohnoma yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgani to'g'risidagi sud qarori (nikoh qayd etilgan hollarda) va oilaviy holati to'g'risida FHDYo organlari arxividan ma'lumotnoma nusxasi (nikoh qayd etilmagan hollarda);
- doimiy propiska joyidan kadastr raqami va turiga tegishli ma'lumotlar;
- doimiy propiska joyidan uy daftarining yoki kvartira kartochkasining (17-shakl bo'yicha) nusxasi;
- ariza beruvchi va birgalikda qarz oluvchilarning daromadi hamda ushlab qolingan daromad soliqlari haqida ma'lumotnoma (qo'shimcha daromadlar bo'lsa soliq deklaratsiyasi).

Ariza yakunlari bo'yicha talabgorga ijobiy javob olingan taqdirda fuqaro o'zining tanloviga ko'ra subsidiyani uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich badal yoki kredit foiz to'lovlarining bir qismini qoplashga qaratilgan mablag' shaklida olishi mumkin bo'ladi.

Shu jumladan:

Qishloq joylarda - birinchi 5 yil davomida ipoteka krediti bo'yicha foiz to'lovlari bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun - 10 foizlik punktdan oshgan qismiga;

Shaharlarda (shu jumladan, Toshkent shahrida ham) - dastlabki badalning bir qismini to'lash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun uy-joy hisoblangan qiymatining 10 foizi miqdorida;

Toshkent shahrida birinchi besh yil davomida kredit bo'yicha foizlarni qoplash uchun - 12 foizlik punktdan oshgan qismiga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar shaharlarida 10 foizlik punktdan oshgan qismiga to'lanadi.

Subsidiyalar bir oilaga (oila a'zolarining bittasiga) faqat 1 marta beriladi.